

**O‘QUVCHILARDA KASBIY O‘ZINI ANGLASH
JARAYONINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

O'tayeva Muxayyo Nuriddin qizi

Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumani 72-maktab psixologi

Hatamova Durdona Muytanboyevna

Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumani 35-maktab psixologi

Innazarova Shahnoza Sulaymonovna

Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumani 11-maktab psixologi

Mamatova Gulchehra

Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumani 73-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘quvchilarda kasbiy o‘zini anglash jarayonining psixologik xususiyatlari, kasbiy shakllanish omillari hamda qiziqish va qobiliyatning kasb tanlashdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, oila, maktab va psixologning kasbiy o‘zini anglashni rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: kasbiy o‘zini anglash, kasb tanlash, o‘quvchi, qobiliyat, qiziqish, motivatsiya, psixologik rivojlanish, kasbiy shakllanish

KIRISH

Bugungi kunda o‘quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Kasbiy o‘zini anglash shaxsning o‘z qiziqishi, imkoniyati va kelajakdagi faoliyatiga nisbatan aniq tasavvur hosil qilishi bilan bog‘liq jarayondir. Kasbiy o‘zini anglash o‘smirlik davrida faol shakllanadi. Bu davrda o‘quvchi o‘z qobiliyatlari, qiziqishlari va hayotiy maqsadlari haqida ko‘proq o‘ylay boshlaydi.

Psixologik jihatdan kasbiy o‘zini anglash shaxsning o‘zini baholashi bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘ziga ishongan o‘quvchi kelajak kasbini tanlashda faolroq bo‘ladi. Qiziqish kasbiy shakllanishning asosiy omillaridan biridir.

O‘quvchi o‘zi yoqtirgan faoliyatga nisbatan ko‘proq intilish va mas’uliyat hissini namoyon qiladi.

Qobiliyat ham kasbiy o‘zini anglashda muhim rol o‘ynaydi. Har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini aniqlash va rivojlantirish kelajakdagi muvaffaqiyatga xizmat qiladi. Motivatsiya kasb tanlashdagi ichki ehtiyoj va intilishni shakllantiradi. Kuchli motivatsiyaga ega o‘quvchi o‘z maqsadi sari qat’iyat bilan harakat qiladi.

Maktab psixologi kasbiy o‘zini anglashni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Psixologik testlar, suhbatlar va treninglar orqali o‘quvchilarning kasbiy moyilligi aniqlanadi. O‘qituvchilar ham o‘quvchilarning qiziqishi va faolligini kuzatib, ularni to‘g‘ri yo‘naltirishda yordam beradi. Fanlarga bo‘lgan moyillik kasb tanlashda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

Oilaviy muhit ham kasbiy o‘zini anglashga ta’sir qiladi. Ota-onaning qo‘llab-quvvatlashi va farzand fikrini hurmat qilishi o‘quvchining mustaqil qaror qabul qilishiga yordam beradi. Kasblar haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lish o‘quvchining dunyoqarashini kengaytiradi. Turli uchrashuv va seminarlar kasbiy tasavvurni shakllantirishda samarali hisoblanadi.

Kasbiy o‘zini anglash – bu shaxsiy rivojlanish jarayoni bo‘lib, uning ichki mazmuni mehnat dunyosi, ijobiy faoliyat yo‘nalishi, ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatda amaliy ko‘nikma va malakalar to‘g‘risida bilimlar tizimini shakllantirishdir. Maktab o‘quvchilarida kelajakdagi kasbiga nisbatan shaxsiy munosabatni, uning ahamiyati va ma’nosini tushunish, mehnatga irodali munosabat kabilarni birgalikda shakllantirish muhim. Maktab o‘quvchilarining shaxsini o‘rganish uchun katta e’tibor talab etiladi, uni qisqa, bir martalik, tizimsiz amalga oshirish mumkin emas. Har bir inson qaysidir sohada iqtidorli. O‘quvchining moyilligini, qobiliyatini shakllantirish va namoyon qilish uchun maksimal imkoniyatlarni yaratish muhim, shuningdek, ularni o‘z vaqtida payqash, tuzatish va rivojlantirish kerak.

Maktab o‘quvchilarini kasb tanlashi uchun ijtimoiy foydali, samarali mehnat bilan shug‘ullanishga va ijtimoiy munosabatlarga o‘rgatish, tanlaydigan kasblarining ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy va tibbiy jihatlari to‘g‘risida zamonaviy bilimlar qurollantirish muhimdir.

Maktab o‘quvchilarining kasb tanlash va mehnat qilishga umumiy tayyorligini shakllantirish vazifasini o‘z zimmasiga oladi, buning uchun turli xil kasbga yo‘naltiruvchi suhbatlar, treninglar, o‘yinlar o‘tkaziladi. Nafaqat psixologlar, balki barcha fan o‘qituvchilari ham o‘rganilayotgan mavzu dasturining mantig‘ini buzmasdan, fanining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘quvchilarning kasbiy o‘zini o‘zi anglashiga faol ta’sir ko‘rsatishga, ularni mehnatning turlari va texnologiyalari, mehnat jarayonlari bilan tanishtirishga chaqirishga, mamlakatning iqtisodiy salohiyatini ochishga hissa qo‘shadilar.

Ota-onalar va maktabning asosiy vazifalaridan biri bolaga o‘zi haqida haqiqiy tasavvurini shakllantirishga yordam berishdir: qobiliyatlari, xarakterning kuchli tomonlari, eng muvaffaqiyatli faoliyatni aniqlashtirishga yordam berishlari kerak.

asarida hunar va kasb egallashning inson hayotidagi ahamiyatini juda teran ifodalab bergan. U “hunarsiz aql – boshsiz tan” ekanligini ta’kidlab, inson uchun kasb va hunar nafaqat tirikchilik vositasi, balki uning jamiyatdagi o‘rni, qadri va foydasini belgilovchi muhim omil ekanligini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, kasb-hunarli inson o‘z mehnati bilan nafaqat o‘ziga, balki jamiyatga ham manfaat keltiradi. Shu sababli qadimdan xalqimiz yoshlarni biror hunar egallashga undab kelgan.

Bugungi kunda ham yoshlar oldida minglab kasblar va faoliyat yo‘nalishlari mavjud. Ular o‘z qiziqishlari, qobiliyatlari va orzularidan kelib chiqib kelajak kasbini tanlashga harakat qiladilar. “Kelajakda kim bo‘laman?”, “Qaysi kasb meni baxtli qiladi?”, “Mening imkoniyatlarim qaysi sohaga mos?” kabi savollar har bir o‘smir va yoshni o‘ylantiradi. Ana shu jarayonda muhim

ahamiyat kasb etadi. Kasb psixologiyasi insonning qiziqishi, moyilligi, iqtidori va xarakterini o‘rganib, unga mos kasb tanlashda yordam beradi.

Yoshlarning kasb tanlashi jarayoni, avvalo, maktab davridan boshlanadi. O‘quvchi turli fanlarga qiziqishi, atrofidagi insonlarni kuzatishi, ma’lum kasb egalariga havas qilishi orqali asta-sekin o‘zida kasbiy yo‘nalishni shakllantiradi. Psixolog olim o‘zining “Kasb qanday tanlanadi” nomli kitobida insonning kasb tanlash jarayonini chuqur tahlil qilgan. Muallifning fikricha, insonda ma’lum kasbga havas, qiziqish, orzu va intilish bo‘lmasa, u kasbni mukammal egallashi qiyin bo‘ladi. Chunki haqiqiy muvaffaqiyatning asosida ichki motivatsiya va kuchli ishtiyoq yotadi.

Kasbga bo‘lgan qiziqish ko‘pincha bolaning atrofidagi insonlarni kuzatishi orqali shakllanadi. Masalan, u ustozining bilimdonligini, shifokorning insonlarga yordam berishini, quruvchining bunyodkorligini yoki san’atkorning mahoratini ko‘rib, shu kasbga havas qila boshlaydi. Insonlarga bildirilayotgan hurmat va maqtovlar ham bolada shu sohaga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Natijada unda orzu, intilish va maqsad paydo bo‘ladi. Bu esa asta-sekin bolaning kelajak rejasini shakllantiradi.

Kasb tanlash jarayoni insonning psixologik holati bilan chambarchas bog‘liqdir. Qiziqish, ehtiyoj, mayl, havas, orzu, maqsad va iroda kabi psixologik tushunchalar ushbu jarayonning asosini tashkil etadi. Ayniqsa iroda kuchi muhim ahamiyatga ega. Chunki inson o‘z maqsadiga erishish uchun doimiy izlanishi, bilim olishi va mehnat qilishi kerak bo‘ladi. Faqatgina orzu qilishning o‘zi yetarli emas, uni amalga oshirish uchun qat’iyat va harakat zarur.

Psixologiyada “istak” tushunchasi ham kasb tanlash bilan bog‘liq holda izohlanadi. Istak — insonning o‘z holatidan qoniqmasligi va nimagadir intilishi bilan xarakterlanadi, biroq bunda inson maqsadni hali aniq tasavvur qila olmaydi. Aynan shu bosqichda yoshlarni to‘g‘ri yo‘naltirish, ularning qobiliyat

va imkoniyatlarini aniqlash muhimdir. Ota-ona, o‘qituvchi va psixologlarning qo‘llab-quvvatlashi yoshlarning to‘g‘ri kasb tanlashida katta yordam beradi.

Kasb tanlash inson hayotidagi eng muhim qarorlardan biridir. To‘g‘ri tanlangan kasb insonning hayotdan mamnun bo‘lishiga, o‘z salohiyatini namoyon etishiga va jamiyatda munosib o‘rin egallashiga xizmat qiladi. Shu sababli yoshlarni bolalikdan kasb-hunarga qiziqtirish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va ongli kasb tanlashga yo‘naltirish bugungi ta‘lim-tarbiya tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Inson psixologiyasida istak, tilak-havas, xohish va iroda kabi tushunchalar shaxsning maqsad sari intilish jarayonini ifodalovchi muhim psixologik holatlardir. Ayniqsa, kasb tanlash jarayonida bu tushunchalar insonning kelajak hayotini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Insonning ma‘lum bir kasbga qiziqishi avvalo oddiy istak shaklida yuzaga keladi. Bu davrda inson o‘zining nimagadir intilayotganini his qiladi, biroq uning maqsadi hali aniq shakllanmagan bo‘ladi.

Istak ma‘lum darajada anglangan sari u tilak-havasga aylanadi. Tilak-havas — insonning ma‘lum maqsadni tasavvur qilishi, ammo unga qanday yo‘l bilan erishishni hali to‘liq bilmasligi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolada yoki o‘smirda yangi intilishlar, qiziqishlar va o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rishga ehtiyoj paydo bo‘ladi. U maqsadga yetishish yo‘llarini izlay boshlaydi, ayrim hollarda esa o‘zidagi istakni amalga oshirishga ishonchsizlik sababli uni yashirishga yoki bosishga harakat qiladi.

Agar inson o‘z maqsadiga erishish vositalarini topa olsa, tilak asta-sekin xohishga aylanadi. Xohish — to‘liq anglangan intilish bo‘lib, bunda inson o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yadi va shu maqsad sari ongli ravishda harakat qilishga tayyorlanadi. Kasb tanlash jarayonida aynan xohish insonni faol harakat qilishga undaydi. O‘quvchi o‘z qiziqishiga mos kasb haqida ma‘lumot yig‘adi, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi hamda kelajak rejasini shakllantiradi.

Bu jarayonda iroda alohida ahamiyat kasb etadi. insonning maqsad sari qat'iy intilishi, qiyinchiliklarni yenga olishi va o'z harakatlarini boshqara bilishida namoyon bo'ladi. Kasb tanlashda inson ko'pincha turli qiyinchiliklar, ikkilanishlar va motivlar kurashiga duch keladi. Ana shunday vaziyatlarda iroda kuchi unga to'g'ri qaror qabul qilish va o'z tanlovida qat'iy turishga yordam beradi.

Psixologiyada irodaviy harakatlar oldindan mo'ljallangan maqsad asosida amalga oshiriladigan ongli harakatlar sifatida talqin qilinadi. Ular ixtiyoriy va ixtiyorsiz shaklda namoyon bo'lishi mumkin. Ixtiyoriy harakatlar insonning o'z xohishi va anglangan maqsadi asosida bajariladi. Masalan, o'quvchining kelajakda shifokor bo'lish maqsadida muntazam o'qishi, qo'shimcha bilim olishi yoki o'z ustida ishlashi ixtiyoriy irodaviy harakat hisoblanadi.

Har qanday faoliyatning asosida motiv yotadi. Motiv insonni ma'lum faoliyatga undovchi ichki sababdir. Kasb tanlash jarayonida ham motivlar kurashi yuz beradi. Ba'zan insonning qiziqishi bir kasbga moyil bo'lsa, ota-onasining istagi yoki jamiyatdagi qarashlar boshqa kasbni tanlashga undashi mumkin. Natijada inson turli motivlarni tahlil qilib, o'z maqsadi va imkoniyatlaridan kelib chiqib qaror qabul qiladi.

Istak, tilak-havas, xohish va iroda insonning kasb tanlash jarayonidagi muhim psixologik bosqichlarini tashkil etadi. Ushbu jarayonlarning to'g'ri shakllanishi insonning ongli ravishda kasb tanlashiga, kelajakdagi muvaffaqiyati va hayotdan qoniqish hosil qilishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda kasbiy o'zini anglashning shakllanishi ularning kelajak hayotidagi muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omildir. To'g'ri psixologik-pedagogik yondashuv orqali o'quvchilarning qobiliyatiga mos kasb tanlashiga yordam berish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 4. Gurevich K.M. Дифференциальная психология и психодиагностика. 2008 y. 21b.
2. ⁷5.Ziyo.net
3. 6.S.X.Jalilova Kasb Psixologiyasi.2010y
4. 7. Sobirovna, U. M. (2022). INTERACTIVE LEARNING METHODS USED
5. IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY COURSES. Open
6. Access Repository, 9(11), 106-113
7. Ziyo.net